

O‘quv jarayonini muvofiqlashtirish sektori menejerlarining xizmat vazifalari

- akademik guruhlarni shakllantirish;
- talabalarga qayta o‘qishni tashkil qilish (fan guruhlarini yaratish, arizalarni ko‘rib chiqish, dars jadvali va nazorat jadvallarini yaratish);
- talabalarni tegishli fanlarga biriktirish;
- talabalarni tizimga kiritish va tegishli guruhlarga biriktirish;
- tyutorga tegishli guruhlarni biriktirish;
- o‘quv rejada mavjud fanlarni semestrlarga biriktirish;
- qabul qilingan talabalarni elektron tizimda ro‘yxatga olish va fanlarga biriktirish;
- talabalar harakati (talabalar safidan chetlashtirish, kursda qoldirish, o‘qishini ko‘chirish, akademik ta‘tilga chiqarish va qaytarish, o‘qishini tiklash)ni muvofiqlashtirish va rasmiylashtirish;
- imtihonlar ro‘yxatini shakllantirish va talabaga taqdim etish;
- talabalarni kursdan kursga o‘tkazish;
- talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichini umumlashtirish va tahlil qilish;
- talabalarning ma’lumot bazalarini shakllantirish va yangilab borish; o‘qishni bitirgan talabalarni tegishli tartibda rasmiylashtirish;
- “HEMIS” tizimi orqali talabalar davomatini nazorat qilish, kunlik davomat hisobotini olish va fanlar bo‘yicha davomatni monitoring qilish;
- dars jadvallarini hamda joriy, oraliq va yakuniy nazorat grafiklarini “HEMIS” axborot tizimida shakllantirish.